



XALQARO STANDARTLARGA KO'RA MILLIY BUXGALTERIYA HISOBINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: IFRS, CAS YOKI AAOIFI

dots. **Qlichev Baxtiyor**
Ma'mun universiteti
ORCID: 0000-0001-6938-7897
klichev.baxtiyor@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish yo'nalishlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Xususan, IFRS, CAS va AAOIFI standartlarining nazariy asoslari, qo'llanilish xususiyatlari va ularning milliy hisob tizimiga ta'siri qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro standartlarni joriy etishga oid ilmiy qarashlar iqtisodiy, institutsional va geoiqtisodiy yondashuvlar nuqtayi nazaridan tizimlashtirilgan. Shuningdek, O'zbekiston buxgalteriya tizimining hozirgi holati xalqaro modellar bilan solishtirilib, uning gibridd xususiyatga egaligi asoslab berilgan. Maqolada xalqaro standartlarga o'tish jarayonini bir yo'nalishli islohot sifatida emas, balki iqtisodiy, strategik va ijtimoiy omillarni qamrab olgan kompleks transformatsiya sifatida baholash zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu asosda milliy hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar, jumladan, asosiy savdo hamkorlariga moslashish, mintaqaviy integratsiya va islom moliyasi tamoyillarini hisobga olishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro standartlar evolyutsiyasi, milliy hisob tizimlari, xalqaro standartlarga o'tishda iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar, Markaziy Osiyo hisob tizimi uyg'unlashuvi, IFRS, CAS, AAOIFI.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ: IFRS, CAS ИЛИ AAOIFI

доц. **Кличев Бахтиёр**
Университет Мамуна

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются направления развития национальной системы бухгалтерского учета на основе международных стандартов. В частности, проведен сравнительный анализ теоретических основ, особенностей применения и влияния стандартов IFRS, CAS и AAOIFI на национальную систему учета. В работе систематизированы научные подходы к внедрению международных стандартов с точки зрения экономических, институциональных и геоэкономических факторов. Кроме того, на основе сравнительного анализа показано, что современная бухгалтерская система Узбекистана носит гибридный характер, сочетая элементы различных международных моделей. Обоснована необходимость рассматривать процесс перехода на международные стандарты не как одностороннюю реформу, а как комплексную трансформацию, учитывающую экономические, стратегические и социальные аспекты. В результате разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию национальной системы учета, включая ориентацию на ключевых торговых партнеров, развитие региональной интеграции и учет принципов исламских финансов.

Ключевые слова: эволюция международных стандартов, национальные системы бухгалтерского учета, экономические и социальные аспекты перехода на международные стандарты, гармонизация систем бухгалтерского учета стран Центральной Азии, IFRS, CAS, AAOIFI.

DIRECTIONS FOR DEVELOPING NATIONAL ACCOUNTING SYSTEMS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS: IFRS, CAS OR AAOIFI

assoc. prof. **Klichev Bakhtiyor**
Ma'mun University

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the directions for developing the national accounting system based on international standards. In particular, a comparative study is conducted on the theoretical foundations, application features, and impact of IFRS, CAS, and AAOIFI on national accounting practices. The study systematizes scholarly perspectives on the adoption of international standards from economic, institutional, and geo-economic viewpoints. Furthermore, the paper demonstrates that the current accounting system of Uzbekistan represents a hybrid model combining elements of different international frameworks. It is argued that the transition to international standards should not be viewed as a one-dimensional reform but rather as a complex transformation incorporating economic, strategic, and social factors. Based on this approach, the study develops theoretical and practical recommendations aimed at improving the national accounting system, including alignment with key trading partners, strengthening regional integration, and incorporating Islamic finance principles.

Keywords: international standard's evolution, national accounting systems, economic and social aspects of the transition to international standards, harmonization of accounting systems in Central Asia, IFRS, CAS, AAOIFI.

Kirish.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan keyin buxgalteriya hisobi tizimini bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Milliy buxgalteriya hisobi tizimini rivojlanishining dastlabki bosqichi sifatida e'tirof etilgan, 90-yillar o'rtasida qilingan mazkur islohotlarning pirovard natijasi 1996-yilda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi bilan yakunlandi. Undan keyingi davrda O'zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish jarayonlari boshlangan. Uning dastlabki belgilari 1996–1999-yillarda xalqaro standartlar asosida milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqilishi boshlanishi bilan namoyon bo'lgan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqishda dastlab BHXS (IAS) lar asos sifatida qabul qilingan va bunga tarixiy zaruriyat sifatida qaralishi kerak. Chunki 1980-yillardan 1990-yillar oxirigacha jahonda eng yirik kapital bozori AQSH da bo'lgani uchun AQSHning US GAAP standartlari amalda xalqaro etalon sifatida qabul qilingan edi. Yevropa davlatlari kompaniyalari AQSH bozoriga chiqish uchun katta xarajat va ortiqcha byurokratiya talab qilinadigan US GAAP asosida qo'shimcha hisobot tayyorlashga majbur edi. Bundan tashqari, Yevropa davlatlarida moliyaviy hisobotlar va buxgalteriya tizimi turli modellarda bo'lganligi (Germaniya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda buxgalteriya tizimi kontinental-yevropa modelida, Angliya va Gollandiyada britan-amerika modeliga yaqin edi) iqtisodiy integratsiyalashuvga to'sqinlik qiluvchi omillar hisoblanardi. Mazkur salbiy omillarni bartaraf etish, hisob va hisobotlarni yagona qoidalarga yaqinlashtirib, transmilliy kompaniyalar faoliyatini tahlil qilishni yengillashtirish va eng muhimi, Yevropa kapital bozorlarini AQSH fond bozorlari bilan raqobatini kuchaytirish maqsadida BHXS (IAS) lar qabul qilingan. Keyinchalik xalqaro amaliyotda BHXS (IAS) lardan MHXS (IFRS) larga o'tish tendensiyasi bilan uzviylikda

O'zbekistonda ham milliy standartlarni ishlab chiqishda BHXS lar bilan birga MHXS larga ham murojaat qilina boshlandi. Mazkur tadqiqotda milliy buxgalteriya hisobi va hisobotini kelgusidagi rivojlanishida qaysi xalqaro standartlariga tayanish maqsadga muvofiqligi, xalqaro standartlarning umumiy va farqli jihatlari, xalqaro standartlarni qabul qilishning ijobiy tomonlari va milliy buxgalteriya tizimiga mosligi borasida fikr yuritimiz.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro va milliy tadqiqotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga ko'ra rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati, globallashuv jarayonlariga ta'siri, rivojlanayotgan davlatlar uchun xalqaro standartlarni qo'llash tajribalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarni davlatlarning xalqaro standartlarni qo'llashdan ko'zlangan turli maqsad va ambitsiyalaridan kelib chiqib tasniflash mumkin.

1. Milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga asosida takomillashtirishda sof iqtisodiy ambitsiyalar ustuvor bo'lgan tadqiqotlar.

Mazkur yo'nalish doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) joriy etishning asosiy maqsadi sifatida buxgalteriya hisobotlarini xalqaro miqyosda soddalashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta'minlash va global investorlar uchun tushunarli yagona hisobot muhitini yaratishni asoslab beradi.

Leuz va Wysocki (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kompaniyalarining xalqaro standartlarga o'tish jarayonlari tahlil qilinib, IFRS'ning joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobotlar shaffofligi va solishtirish imkoniyati oshgani, biroq ayrim hollarda institutsional muhit bilan bog'liq cheklovlar mavjudligi qayd etilgan.

Daske, Hail, Leuz va Verdi (2008) tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotda Yevropa Ittifoqi davlatlarida IFRS'ning majburiy joriy etilishi kompaniyalarning bozor likvidligi, kapital qiymati va aksiyalar narxiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, IFRS'ga o'tish ayniqsa xalqaro investorlar uchun ochiq bo'lgan kompaniyalarda bozor samaradorligini oshirgan.

Mahsulot ishlab chiqarishning maksimal hajmini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar korxonada IFRS ning qo'llash darajasiga ham bog'liq bo'ladi (Pardayevich, K. B. 2023)

Armstrong, Barth, Jagolinzer va Riedl (2010) tadqiqotida Yevropa bozorida IFRS'ning majburiy joriy etilishi moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ta'siri o'rganilib, natijada hisobotlar sifatining oshishi va tahliliy muhitning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan.

Korxonalarda CVP-tahlilni qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hisob va hisobot tizimini xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan birgalikda o'rganiladi (Qlichev, B. 2024).

Florou va Pope (2012) tadqiqoti IFRS'ga o'tishning institutsional investorlar faolligiga ta'sirini tahlil qiladi. Mualliflar xulosasiga ko'ra, IAS'dan IFRS'ga majburiy o'tish bozor likvidligini oshirishga xizmat qilgan bo'lib, ayniqsa likvidligi past bo'lgan bozorlarda institutsional investorlar ishtirokini faollashtirgan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilida IFRS'ni qabul qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar kompleks tarzda o'rganilib, buxgalteriya qoidalari va tamoyillari, mutaxassislar malakasi, milliy hisob modellari, davlat qo'llovi va menejrlarning tushunchalari IFRS'ni joriy etish samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida qayd etiladi (Pardayevich Q. B., 2023).

2. Milliy buxgalteriya tizimini davlatlarning tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlarda amal qilayotgan buxgalteriya standartlariga yaqinlashtirish g'oyasiga asoslangan tadqiqotlar:

Xalqaro iqtisodiy integratsiya chuqurlashib borayotgan sharoitda milliy buxgalteriya hisobi tizimini uyg'unlashtirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, mamlakatlarning qaysi davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari ustuvor bo'lsa, o'sha davlatlarda amal qilayotgan buxgalteriya standartlariga yaqinlashish tendensiyasi mavjudligi ko'plab ilmiy ishlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishdagi ilk konseptual yondashuvlardan biri "network effects (soha ta'siri)" nazariyasi hisoblanadi. Ramanna va Sletten (2014) tadqiqotida ta'kidlanishicha, mamlakatlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (IFRS) qabul qilish qarori ko'p jihatdan ularning asosiy savdo va investitsiya hamkorlari qaysi standartlardan foydalanishiga bog'liq. Mualliflar fikriga ko'ra, iqtisodiy aloqalar tizimida umumiy buxgalteriya "tili"ga ega bo'lish axborot almashinuvini osonlashtiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va xalqaro investorlar uchun shaffoflikni oshiradi.

Hope, Jin va Kang (2006) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar ham shu xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Ularning natijalariga ko'ra, tashqi savdoga ochiqlik darajasi yuqori bo'lgan va kapital bozorlariga faol integratsiyalashgan davlatlarda IFRS ga o'tish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bu holat buxgalteriya standartlarini tanlash faqat siyosiy omillar bilan emas, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlari bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Judge, Li va Pinsker (2010) olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, milliy standartlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda "mimetik (asosiy hamkorlarga o'xshashga intilish) yondashuv" muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ya'ni mamlakatlar o'zlarining asosiy iqtisodiy sheriklari qo'llayotgan qoidalarni qabul qilish orqali xalqaro maydonda legitimlikka ega bo'lishga intiladi. Bu, ayniqsa, tashqi savdo aylanmasida eksport ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotga ega davlatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida mualliflar Zeghal va Mhedhbi (2006) olib borgan tadqiqot alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotchilar mamlakatlarning tashqi savdo hajmi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik darajasi o'sha davlatlar buxgalteriya tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy determinantlari ekanini aniqlagan. Tadqiqotdan olinadigan asosiy xulosa, buxgalteriya standartlarining konvergentsiyasi ko'p hollarda davlatlar tashqi iqtisodiy strategiyasining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirishi hisoblanadi.

Mualliflar Chua va Taylor (2008) fikriga ko'ra, xalqaro standartlarning globallashtirishining asosiy drayverlari sifatida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik va transmilliy kompaniyalar faoliyati ko'rsatiladi. Ya'ni, davlatlarda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar ulushi ortgan sari, yagona hisobot tizimiga ehtiyoj kuchayadi va bu milliy standartlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishni tezlashtiradi.

Ball R. (2006) olib borgan tadqiqotida, hisob standartlarining uyg'unlashuvining ijobiy jihatlari xorijiy investorlar manfaatlari nuqtayi nazaridan ochib berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, mamlakat tashqi moliyaviy bozorlardan kapital jalb etishga qanchalik ko'p ehtiyoj sezsa, xalqaro standartlarga o'tish zaruriyati shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu tadqiqot ham tashqi iqtisodiy aloqalar va buxgalteriya siyosati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

3. Xalqaro standartlarga o'tishda geoiqtisodiy va strategik qarorlarga ustuvorlik berilgan g'oya asosida olib borilgan tadqiqotlar.

So'nggi yillarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish jarayonini tahlil qilishda geoiqtisodiy va strategik yondashuv alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Ushbu yondashuvga ko'ra, buxgalteriya standartlarini tanlash faqat texnik yoki iqtisodiy samaradorlik masalasi emas, balki davlatlarning global iqtisodiy tizimdagi pozitsiyasini belgilashga qaratilgan uzoq muddatli strategik qaror hisoblanadi.

Daske va boshqalar tadqiqoti IFRS'ni majburiy joriy etgan davlatlarda kapital bozorlari reaksiyasini tahlil qilib, standartlarni qabul qilish ortida iqtisodiy samaradan tashqari, xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashish maqsadi yotganini ko'rsatadi. Mualliflar fikriga ko'ra,

ayrim davlatlar IFRS'ni qabul qilish orqali o'z bozorlarini global investorlar uchun ochishga intiladi, bu esa strategik qaror sifatida baholanadi.

Mahsulot sotish hajmini oshirishda, buxgalteriya tizimini tashqi iqtisodiy faoliyatda eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar hisob tizimiga yaqinlashtirish, jozibador omillardan biri hisoblanadi. (Qlichev B. P., 2022)

Brüggemann, Hitz va Sellhorn (2013) xalqaro standartlarning Yevropa Ittifoqida joriy etilishini tahlil qilar ekan, IFRS'ga o'tish jarayonini institutsional va siyosiy manfaatlar bilan bog'laydi. Ularga ko'ra, standartlarni qabul qilish ko'p hollarda iqtisodiy emas, balki integratsion siyosat va mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar doirasidagi strategik qarorlar natijasi hisoblanadi.

Camfferman va Zeff (2015) xalqaro buxgalteriya standartlari tarixi va institutsional rivojlanishini o'rganib, IFRS'ning global tarqalishi xalqaro iqtisodiy kuchlar muvozanati va moliyaviy markazlar ta'siri ostida shakllanganini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqoti buxgalteriya standartlari geoiqtisodiy raqobat vositasi sifatida ham xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kaya va Koch (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotda IFRS'ga o'tish jarayonida davlatlarning siyosiy va iqtisodiy institutlari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ta'siri ham muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Ayniqsa, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan islohotlar IFRS ni joriy etishda strategik bosim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Alon va Dwyer (2014) tadqiqotida xalqaro standartlarning qabul qilinishi globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilingan. Mualliflar davlatlar IFRS ni qabul qilish orqali xalqaro iqtisodiy tizimga "qo'shilish"ga intilishini ta'kidlaydi. Bu esa milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishni ayrim davlatlar geoiqtisodiy integratsiyaning bir vositasi sifatida qo'llayotganligini anglatadi.

Christensen, Hail va Leuz (2013) tadqiqotida IFRS ning joriy etilishi bilan bog'liq iqtisodiy natijalar tahlil qilinib, standartlarni qabul qilishning samarasi ko'p jihatdan davlatning institutsional muhiti va siyosiy irodasiga bog'liq ekani ko'rsatiladi. Bu esa IFRS ga o'tish qarorlarini strategik boshqaruv vositasi sifatida qabul qilinayotganligini tasdiqlaydi.

4. Xalqaro standartlarga o'tishda islom moliyasiga ustuvorlik beruvchi zamonaviy yondashuvlar asosidagi tadqiqotlar

Zamonaviy iqtisodiyotda buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish faqat iqtisodiy va strategik omillar bilan emas, balki madaniy-diniy omil sifatida, islom moliyasi tamoyillari ta'sirida ham rivojlantirish masalalari ko'p vektorli yondashuvni talab qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish jarayonini tahlil qilishda yangi konseptual yo'nalishlardan biri sifatida islom moliyasi tamoyillariga moslashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, aholisi aksariyat qismi islom diniga e'tiqod qiladigan davlatlarda xalqaro buxgalteriya standartlarini tanlash faqat iqtisodiy samaradorlik yoki geoiqtisodiy strategiya bilan cheklanmaydi, balki shariat qoidalariga muvofiq moliyaviy tizimni shakllantirish maqsadi iqtisodchilar uchun ham va aholi uchun ham jozibador bo'lishi mumkin.

Haniffa va Hudaib (Haniffa R., & Hudaib M., (2007) tadqiqotida islom banklarining moliyaviy hisobotlari faqat iqtisodiy natijalarni emas, balki ularning shariatga muvofiqligi va axloqiy pozitsiyasini ham aks ettirishi lozimligi ta'kidlanadi. Mualliflar islom moliyaviy institutlari hisobotlarida ijtimoiy mas'uliyat va diniy tamoyillar muhim o'rin tutishini asoslab beradi. Bu holat an'anaviy IFRS modelining investorlarga yo'naltirilgan yondashuvidan farq qilib, kengroq manfaatdor tomonlar doirasini qamrab olish zarurligini ko'rsatadi.

Napier (Napier C., 2009) islom buxgalteriyasining nazariy asoslarini o'rganib, uning g'arb buxgalteriya tizimidan farqli ravishda diniy va madaniy omillarga tayanishini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda buxgalteriya standartlarini joriy etish jarayoni milliy va diniy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi davlatlarning iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda muhim dastak bo'lishi mumkin.

Mollah va Zaman (2015) islom banklari faoliyatini tahlil qilar ekan, ularning korporativ boshqaruvi va hisobot tizimi shariat nazorati bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu holat buxgalteriya axborotining mazmuni va taqdim etilish shakli an'anaviy banklardan farq qilishini anglatadi. Demak, IFRS ga to'liq o'tish islomiy moliya institutlari uchun har doim ham optimal yechim bo'lmasligi mumkin. Bu yerda yumshoqroq yondashuv talab etiladi.

Sarea va Hanefah (2013) tadqiqoti islom moliyasida buxgalteriya standartlarini qo'llash amaliyotini o'rganib, AAOIFI standartlari ayrim mamlakatlarda to'liq, boshqalarida esa qisman joriy etilganini ko'rsatadi. Bu holat milliy iqtisodiy siyosat va diniy omillar o'rtasidagi muvozanatni topish zarurligini anglatadi.

Hassan va Aliyu (2018) tadqiqotida islom moliyasi global moliyaviy tizimning muhim qismiga aylanib borayotgani ta'kidlanadi. Bu esa buxgalteriya standartlarini ishlab chiqishda shariat talablarini inobatga olish zarurligini kuchaytiradi. Mualliflar islom moliyasining rivojlanishi buxgalteriya standartlarining diversifikatsiyasiga olib kelayotganini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Adabiyotlar sharhi bo'limidagi dastlabki 3 yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda rivojlantirish jarayonida dastlab IAS ishlab chiqilishida asosiy e'tibor iqtisodiy samaradorlikka qaratilgan bo'lsa-da, keyinchalik mazkur standartlarning IFRS (International Financial Reporting Standards)ga transformatsiyasi faqat texnik-iqtisodiy emas, balki geoiqtisodiy va strategik qarorlar natijasi sifatida namoyon bo'ldi. 1-jadvalda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining evolyutsiya bosqichlari, har bir bosqichdagi maqsadlar, yondashuvlar, ularning xususiyatlari va natijalar umulashtirilgan.

1-jadval.

Xalqaro standartlarining rivojlanish bosqichlari, maqsad va natijalari

Bosqich	Asosiy ambitsiya	Maqsad	Natija
1-bosqich: IAS davri 1990-yilgacha	Sof iqtisodiy	Hisobotni soddalashtirish	Xalqaro hisobot asosi shakllandi
2-bosqich: O'tish davri 1990-2000	Iqtisodiy + geoiqtisodiy	AQSH ta'sirini kamaytirish	IFRS konsepsiyasi shakllandi
3-bosqich: IFRS joriy etish 2002-2005	Strategik qaror	Yevropa bozorini integratsiya qilish	Yevropa moliyaviy integratsiyasi
4-bosqich: Geoiqtisodiy raqobat 2005-yildan hozirgacha	Geosiyosiy va strategik	Global ta'sir uchun kurash	Ikki standartli global tizim

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining rivojlanishi uzoq yillar davomida bosqichma-bosqich evolyutsion jarayon sifatida shakllanib, iqtisodiy ehtiyojlardan geoiqtisodiy va strategik maqsadlargacha bo'lgan keng qamrovli transformatsiyani boshdan kechirdi. Ushbu jarayonni tahlil qilish xalqaro hisobot tizimining mohiyatini chuqur anglash va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini baholash imkonini beradi.

Dastlabki bosqichda, ya'ni IAS davrida xalqaro standartlarni ishlab chiqishda asosiy e'tibor sof iqtisodiy vazifalarga qaratildi. Bu davrda moliyaviy hisobotlarni soddalashtirish, turli mamlakatlar hisobotlari o'rtasida solishtirish imkoniyatini ta'minlash hamda transmilliy kompaniyalar uchun yagona hisobot muhitini shakllantirish ustuvor vazifalar hisoblandi.

Mazkur bosqichda standartlar asosan texnik va metodologik xarakterga ega bo'lib, global iqtisodiy integratsiyaga xizmat qiluvchi instrument sifatida shakllandi.

1990-yillardan boshlab xalqaro standartlar rivojida sifat jihatdan yangi bosqich kuzatildi. Bu davrda geoiqtisodiy omillar ahamiyati ortib, xalqaro hisobot tizimi global raqobat muhitida shakllana boshladi. Xususan, AQSH moliyaviy bozorlarining ustunligi va US GAAP ning "de-fakto" xalqaro standartga aylanishi, Yevropa davlatlarini muqobil hisobot tizimini shakllantirishga undadi. Natijada IASdan IFRSga o'tish jarayoni faqat texnik takomillashuv emas, balki iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi sifatida ham talqin qilindi.

Keyingi bosqichda Yevropa Ittifoqi xalqaro hisobot tizimini shakllantirishda faol strategik rol o'ynadi. 2002-yilda qabul qilingan 1606/2002-sonli Reglamentga muvofiq, 2005-yildan boshlab listing qilingan kompaniyalar uchun IFRS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlash majburiy etildi. Ushbu qaror orqali Yevropa Ittifoqi US GAAP ga muqobil global standart yaratish, kapital bozorlarini integratsiya qilish hamda investorlar uchun shaffof va ishonchli axborot muhitini ta'minlashni maqsad qildi. Bu jarayon IFRSni xalqaro moliyaviy hisobot tizimining muhim elementiga aylantirdi.

Zamonaviy bosqichda xalqaro standartlar rivoji geosiyosiy va strategik raqobat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. AQSH tomonidan milliy standart — US GAAP ni saqlab qolish global hisobot tizimida "ikki standartli" modelning shakllanishiga olib keldi. Bu holat ayrim tadqiqotlarda "accounting sovereignty" va "accounting imperialism" tushunchalari orqali izohlanadi. Mazkur yondashuv buxgalteriya standartlari orqali davlatlar o'z iqtisodiy ta'sir doirasini kengaytirishga intilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro hisobot tizimining rivojlanishi uning mazmun jihatdan takomillashib borishi bilan ham xarakterlanadi. An'anaviy moliyaviy hisobotlar (financial statements) bilan cheklangan yondashuvdan farqli ravishda, zamonaviy bosqichda "financial reporting" tushunchasi shakllanib, u moliyaviy axborotlarni tayyorlash, taqdim etish va ochiqlash jarayonlarini qamrab olgan kompleks tizimga aylandi. Bu esa hisobot berish amaliyotida sifat jihatdan yangi bosqichni belgilaydi (Qlichev B., 2025).

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining rivojlanishi iqtisodiy ehtiyojlardan boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunda u global iqtisodiy raqobat va strategik manfaatlar bilan bog'liq murakkab tizimga aylandi. Ushbu jarayonni chuqur tahlil qilish milliy hisobot tizimlarini takomillashtirish va xalqaro amaliyotga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining rivojlanish evolyutsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tizim dastlab sof iqtisodiy vazifalarga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik geoiqtisodiy va strategik omillar ta'sirida shakllanib, bugungi kunda global raqobat muhitining muhim elementiga aylandi (Pardayevich Q. B., 2025). Ayniqsa, "financial statements" dan "financial reporting" ga kengayish jarayoni hisobot berish tizimining mazmun va qamrov jihatdan takomillashuvini ifodalaydi. Ushbu nazariy xulosalarni milliy amaliyot bilan solishtirish maqsadida 2-jadvalda O'zbekiston buxgalteriya tizimining xalqaro modellarga mosligi qiyosiy tahlil qilindi. Jadval natijalariga ko'ra, O'zbekistonda amaldagi buxgalteriya tizimi asosan davlatga yo'naltirilgan modellar (kontinental Yevropa, post-sovet va qisman Xitoy modeli) xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lib, davlat nazoratining yuqori ulushi, milliy standartlarning ustunligi va hisobotning soliq bilan bog'liqligi buni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hisobotda ochiqlash darajasining oshishi, IFRS elementlarining joriy etilishi hamda ESG ma'lumotlarining shakllana boshlashi milliy tizimning bozorga yo'naltirilgan (anglo-sakson) model tomon transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Demak, O'zbekiston buxgalteriya tizimi xalqaro standartlar evolyutsiyasiga mos ravishda "financial statement" ga asoslangan an'anaviy modeldan "financial reporting" ga yo'naltirilgan keng qamrovli hisobot berish tizimiga o'tish bosqichida turgan gibrid tizim sifatida baholanishi mumkin.

Maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatlarni xalqaro buxgalteriya standartlariga o'tishni faqat "shaffoflikni oshirish" bilan izohlash yetarli emas,

balki bu jarayon savdo hamkorlariga moslashish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish va institutsional imkoniyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

2-jadval.

O'zbekiston buxgalteriya tizimining xalqaro modellarga mosligining qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	Bozorga yo'naltirilgan model (Anglo-sakson)	Davlatga yo'naltirilgan model (Kontinental Yevropa, Xitoy modeli, post-sovet)	O'zbekistondagi holat	Moslik
Asosiy foydalanuvchi	Investorlar, kapital bozori	Davlat, banklar	Davlat. Kelajakda: investorlar (o'tish jarayoni)	post-sovet va Yevropa
Hisobot maqsadi	Shaffoflik, investitsiya	Nazorat, soliq	Nazorat. Kelajakda: shaffoflik va investitsiya	aralash
Hisobot standarti	IFRS / US GAAP	Milliy + IFRS elementlari	Milliy standartlar va IFRS elementlari	Yevropa va Xitoy
Soliq bilan bog'liqlik	Ajratilgan	Qisman bog'liq	Qisman bog'liq (kamayish tendensiyasiga ega)	post-sovet va Xitoy
Davlatning roli	Kam	O'rtacha	O'rtadan yuqori (yaxshi signal: xususiy sektor ulushi ortmoqda)	post-sovet va Xitoy
Hisob shakllari	Erkin	Qisman standart	Qisman reglamentlashgan	post-sovet
Schetlar rejasi	Yo'q (flexible)	Qisman	Mavjud (milliy)	post-sovet
Hisobotda ochiqdash (Disclosure)	Juda yuqori	O'rtacha	Oshib bormoqda	Yevropa
ESG ma'lumotlari	Rivojlangan	Rivojlanmoqda	Yangi shakllanmoqda	anglo-saksonga o'tish
Bozorga yo'naltirilganlik	Kuchli	O'rtacha	Oshib bormoqda	aralash
Huquqiy baza	Professional (principles-based)	Qonunga asoslangan	Qonun va standartlar	Yevropa

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston buxgalteriya tizimi ham klassik bir model yoki ma'lum bir standart doirasida emas, balki amaldagi post-sovet va kontinental xususiyatlarni saqlagan holda, kelajakda anglo-sakson tipidagi "IFRS global" ga yo'naltirilgan tizimga bosqichma-bosqich transformatsiyalanayotgan gibril model sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa milliy buxgalteriya standartlarini takomillashtirish jarayonini yagona maqsad bilan emas, balki iqtisodiy, institutsional va geostrategik omillar majmuasi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Maqolada olib borilgan tadqiqotlardan olinadigan eng muhim keys – O'zbekistonda milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish jarayonini yagona maqsad doirasida emas, balki ko'p omilli va kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqish

maqsadga muvofiq. Chunki mazkur transformatsiya faqat sof iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, ya'ni moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va solishtirish imkoniyatini oshirish bilan cheklanib qolmaydi. Bir vaqtning o'zida u tashqi iqtisodiy faoliyatda asosiy savdo va investitsiya hamkorlari qo'llayotgan standartlarga moslashish orqali axborot almashinuvini yengillashtirish va tranzaksion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, buxgalteriya standartlarini transformatsiya qilish geoiqtisodiy va strategik maqsadlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatning global kapital bozorlariga integratsiyalashuvi, investitsion jozibadorligini oshirish va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda mamlakatimizdagi buxgalteriya tizimi ham juda ko'p jihatdan kontinental Yevropa modeliga yaqin bo'lsada, ambitsiyalar jihatdan gibridda ekanligini ham ko'rsatib berdik. Demak, O'zbekiston sharoitida xalqaro standartlarga o'tishni bir vektorli islohot sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va geostrategik omillarni o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks transformatsiya jarayoni sifatida baholash ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

1-taklif. Milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishda sof iqtisodiy yondashuv bo'yicha quyidagilarga ustuvorlik berilishini taklif qilaman:

- moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada solishtirish imkoniyatini oshirish;
- axborot shaffofligi va ishonchliligi ta'minlash;
- kapital bozorlarining samaradorligini oshirish;
- investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish.


Ushbu yo'nalishlar doirasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarda ham milliy standartlarni takomillashtirishni iqtisodiy manfaatlar va bozor samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan asoslash hamda uni global moliyaviy tizimda yagona hisobot tilini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilishga ahamiyat qaratilishi kerak. Lekin maqolada olib borilgan tadqiqotlardan olinadigan xulosa shuki, buxgalteriya tizimini takomillashtirishda faqat iqtisodiy yondashuv yetarli emas.

2-taklif. Milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro standartlarga ko'ra takomillashtirishda Xitoy modeliga asoslangan yondashuvni to'liq qo'llash kerak.

Ushbu taklif orqali quyidagilarga erishiladi:

- asosiy savdo va investitsiya hamkorlari qo'llayotgan standartlarga yaqinlashish axborot shaffofligini oshirish va iqtisodiy aloqalar samaradorligini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi
- Xitoy milliy buxgalteriya standartlari (CAS) ham IFRS ga yuqori darajada integratsiya bo'lgan va bu O'zbekistonning milliy standartlarni bosqichma-bosqich IFRS ga moslashtirish pozitsiyasiga mos
- Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyatimizda asosiy hamkor statusini yaqin kelajakda hech kimga bermasligi prognozi asosida, "asosiy hamkorga ko'ra takomillashish" tamoyili bilan ishlash buxgalteriya tizimida keskin o'zgarishlardan himoya qiladi, risklar minimallashtiriladi va korxonalar uchun moslashuv xarajatlari pasayishi mumkin.

Ushbu taklifni quvvatlash maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan 1-rasmdagi digramma tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010–2025-yillar davomida O'zbekiston tashqi savdo hamkorlari tarkibida sezilarli qayta taqsimlanish kuzatilgan. Xususan, Rossiyaning ustun pozitsiyasi bosqichma-bosqich pasaygan bo'lsa, Xitoyning ulushi izchil ravishda o'sib, 2025-yilga kelib yetakchi o'rinni egallagan. Bu holat tashqi iqtisodiy munosabatlarning geoiqtisodiy yo'nalishi o'zgarayotganini ko'rsatadi va bu tendensiyalar buxgalteriya standartlarini takomillashtirishda "asosiy hamkorga ko'ra takomillashish" yondashuvining ahamiyatini yanada kuchaytiradi, ya'ni milliy standartlarni asosiy savdo va investitsiya hamkorlari qo'llayotgan standartlarga moslashtirish zaruratini amaliy jihatdan asoslaydi.



1-rasm. O'zbekistonning 2010-2025-yillarda tashqi iqtisodiy faoliyatida asosiy hamkor davlatlar ulushining o'zgarishi.

Shu nuqtayi nazardan, Xitoyda qo'llanilayotgan va IFRSga yaqinlashtirilgan gibrid buxgalteriya standartlari (CAS) modeli O'zbekiston uchun amaliy jihatdan maqbul hisoblanishi mumkin. Mazkur model xalqaro standartlarni qabul qilish bilan bir vaqtda milliy institutsional xususiyatlarni saqlash tamoyillariga asoslangan. Bu esa O'zbekistonda buxgalteriya tizimini to'liq IFRS ga o'tkazishdan ko'ra, bosqichma-bosqich gibrid model asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

2-taklifdan olinadigan xulosa shuki, Xitoy modeliga asoslangan konvergensiya yondashuvi O'zbekistonda buxgalteriya hisobini isloh qilishda barqarorlik, moslashuvchanlik va xalqaro uyg'unlikni ta'minlovchi samarali strategiya sifatida namoyon bo'ladi.

3-taklif. Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy integratsiyasini yanada rivojlantirishda buxgalteriya tizimini uyg'unlashtirish konsepsiyasi:

1-rasmdan ko'rinadiki, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida so'nggi yillarda Qozog'iston bilan savdo-iqtisodiy aloqalar ulushining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Ikkala davlat uchun ham, umuman Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham, bu juda yaxshi signal. Bu holat mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlari faollashayotganini va o'zaro bog'liqlik darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy buxgalteriya standartlarini takomillashtirishda geoiqtisodiy, strategik va mintaqaviy integratsion omillarni ham inobatga olish zarur. O'zbekistonning geografik joylashuvi va dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatining cheklanganligi (noqulay logistika sharoiti) uning tashqi iqtisodiy faoliyatida qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni strategik ahamiyatli omilga aylantiradi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishni va ushbu jarayonlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu vositalardan biri sifatida, buxgalteriya hisobini takomillashtirishda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hisob tizimlarini uyg'unlashtirish (harmonization) konsepsiyasi hisoblanadi. Bunda IFRS umumiy metodologik baza sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq uning amaliy qo'llanilishi mintaqaning qonunchilik va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Ushbu konsepsiya quyidagi ustunliklarni ta'minlaydi:

- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida moliyaviy axborotning taqqoslanuvchanligi va shaffofligi oshadi, bu esa o'zaro investitsiya va savdo munosabatlarini rag'batlantiradi;
- transchegaraviy biznes subyektlari uchun hisob yuritish va hisobot tayyorlash xarajatlari kamayadi va tizimlashadi

- logistik cheklovlar sharoitida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya kuchayib, O'zbekistonning tranzit va savdo imkoniyatlari kengayadi;
- geoiqtisodiy ambitsiyalar doirasida O'zbekiston Markaziy Osiyoda iqtisodiy markaz sifatida o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi.
- Markaziy Osiyo davlatlari uchun iqtisodiy uyg'unlashuv nafaqat savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish vositasi, balki global iqtisodiy tahdidlarga qarshi turishning samarali instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yirik xalqaro iqtisodiy bloklar va tashkilotlar fonida kichik va o'rta iqtisodiyotlar yakka holda raqobatlasha olmasligi amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda.

4-taklif. Islom moliyasi tamoyillarini inobatga olgan holda buxgalteriya standartlarini takomillashtirish konsepsiyasi

Xabaringiz bor, 2026-yil 27-mart sanasida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1126-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Aholisi asosan islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatlarda, jumladan O'zbekistonda buxgalteriya standartlarini takomillashtirish jarayonida nafaqat xalqaro, balki, diniy-etik omillarni ham inobatga olish hamda uning huquqiy bazasini mustahkamlash ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, moliyaviy munosabatlarda shaffoflik, adolat va risklarni taqsimlash kabi tamoyillarga asoslangan islom moliyasi tizimi bilan ham bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, milliy buxgalteriya standartlarini takomillashtirishda Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni qisman integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yondashuv IFRS bilan uyg'un holda amalga oshirilib, moliyaviy hisobot tizimining ko'p qirrali va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuvni joriy etish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- moliyaviy hisobotlarda adolatli taqsimot, riskni sheriklashish va foizsiz moliyalashtirish tamoyillarini aks ettirish orqali axborotning mazmunan boyligi va ishonchliligi oshadi;
- aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi kuchayadi, ayniqsa islom moliyasiga mos mahsulotlardan foydalanish aholi uchun ham investor uchun jozibadorlik darajasini oshiradi (taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekiston aholisi qo'lida 35-40 mlrd. dollar jamg'arma mavjud. Buni investitsiya sifatida iqtisodiyotga jalb etish kerak);
- islom moliyaviy institutlarini rivojlantirish uchun huquqiy va hisobiy baza shakllanadi, bu esa investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- xalqaro islom moliya bozorlari bilan integratsiya imkoniyatlari ortib, O'zbekistonning islom moliyaviy markazi sifatidagi salohiyati oshadi, (kamida Markaziy Osiyo uchun);
- milliy buxgalteriya tizimida axloqiy-ijtimoiy (etik) tamoyillarning kuchayishi orqali korporativ boshqaruv sifati va shaffoflik yaxshilanishi mumkin.

Shunday qilib, buxgalteriya standartlarini takomillashtirishda islom moliyasi tamoyillarini hisobga olish O'zbekiston uchun faqat moliyaviy-hisobiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Bu yondashuv milliy qadriyatlar, xalqaro standartlar va zamonaviy iqtisodiy talablar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Umumiy xulosamiz shuki, olib borgan tadqiqotimizda, buxgalteriya tizimini yanada rivojlantirishda xalqaro standartlar, mintaqaviy integratsiya va milliy (shu jumladan, ahloqiy-ijtimoiy) xususiyatlarni bir vaqtning o'zida hisobga oluvchi gibril yondashuv O'zbekiston uchun eng maqbul strategik yo'nalish ekanligi ko'rsatib berildi. Bunday yondashuv buxgalteriya tizimini bir tomonlama transformatsiya qilishdan ko'ra, uni barqaror, moslashuvchan va geoiqtisodiy jihatdan samarali modelga aylantirish imkonini beradi.

Mening fikrimcha, O'zbekistonda buxgalteriya standartlarini takomillashtirish jarayonini "global-iqtisodiy-mintaqaviy-milliy" integratsion modeli asosida amalga oshirish ilmiy jihatdan eng asosli va istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Bu model orqali kelajakda O'zbekistonda milliy buxgalteriya tizimini xalqaro buxgalteriya tizimiga samarali integratsiyalashgan, o'zining iqtisodiy manfaatlari, geoiqtisodiy strategiyasi va ijtimoiy xususiyatlarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan rivojlantirish imkoniyatlari paydo bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar/ Jumepamyra/References:

Christian Leuz, Peter Wysocki., (2016). *The Economics of Disclosure and Financial Reporting Regulation: Evidence and Suggestions for Future Research*. *Journal of Accounting Research*, 54 (2), 525-622 p.

Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. S. (2008). *Mandatory IFRS reporting around the world: Early evidence on the economic consequences*. *Journal of Accounting Research*, 46(5), 1085–1142

Pardayevich, K. B. (2023). *Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan*. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8.

Armstrong, C. S., Barth, M. E., Jagolinzer, A. D., & Riedl, E. J. (2010). *Market reaction to the adoption of IFRS in Europe*. *The Accounting Review*, 85(1), 31–61.

Qlichev, B. (2024). *Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari*. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4).

Florou, A., & Pope, P. F. (2012). *Mandatory IFRS adoption and institutional investment decisions*. *The Accounting Review*, 87(6), 1993–2025.

Pardayevich, Q. B. (2023). *Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari*. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises*. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNIE IDEI V MIRE*, 13(7), 42-49.

Hope, O.-K., Jin, J., & Kang, T. (2006). *Empirical evidence on jurisdictions that adopt IFRS*. *Journal of International Accounting Research*, 5(2), 1–20.

Judge, W., Li, S., & Pinsker, R. (2010). *National adoption of international accounting standards: An institutional perspective*. *Corporate Governance: An International Review*, 18(3), 161–174.

Zeghal, D., & Mhedhbi, K. (2006). *An analysis of the factors affecting the adoption of international accounting standards by developing countries*. *The International Journal of Accounting*, 41(4), 373–386.

Chua, W. F., & Taylor, S. L. (2008). *The rise and rise of IFRS: An examination of IFRS diffusion*. *Journal of Accounting and Public Policy*, 27(6), 462–473.

Ball, R. (2006). *International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors*. *Accounting and Business Research*, 36(sup1), 5–27.

Qlichev, B. P. (2022). *Mahsulot sotish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari*. *Science and Education*, 3(5), 1719-1728.

Brüggemann, U., Hitz, J.-M., & Sellhorn, T. (2013). *Intended and unintended consequences of mandatory IFRS adoption: A review of extant evidence*. *European Accounting Review*, 22(1), 1–37.

Tulayev, M. (2023). *Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Bo'yicha Moliyaviy Hisobot: Tayyorlash Va Avtomatlashtirish*. *Green Economy and Development*, 1(6), 662684

Camfferman, K., & Zeff, S. A. (2015). *Aiming for global accounting standards: The International Accounting Standards Board, 2001–2011*. Oxford University Press.

Ramanna, K., & Sletten, E. (2014). *Network effects in countries' adoption of IFRS*. *The Accounting Review*, 89(4), 1517–1543.

Kaya, D., & Koch, M. (2015). Countries' adoption of the International Financial Reporting Standard for small and medium-sized entities (IFRS for SMEs): Early empirical evidence. *Accounting and Business Research*, 45(1), 93–120.

Pardayevich, Q. B. (2025). Economic Analysis of Production in The Economic Entities. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 38(1), 275-281.

Alon, A., & Dwyer, P. D. (2014). Early adoption of IFRS as a strategic response to transnational and local influences. *The International Journal of Accounting*, 49(3), 348–370.

Qlichev, B. (2025). Xo 'jalik yurituvchi subyektlar operatsion faoliyatida aylanma mablag'lardan foydalanish tahlili. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, 3(1).

Christensen, H. B., Hail, L., & Leuz, C. (2013). Mandatory IFRS reporting and changes in enforcement. *Journal of Accounting and Economics*, 56(2–3), 147–177.

Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. (2008). Mandatory IFRS reporting around the world: Early evidence on the economic consequences. *Journal of Accounting Research*, 46(5), 1085–1142.

Haniffa, R., & Hudaib, M. (2007). Exploring the ethical identity of Islamic banks via communication in annual reports. *Journal of Business Ethics*, 76(1), 97–116.

Tulayev, M. S. (2023). Ijara olingan asosiy vositalar hisobi–moliyaviy faoliyatni moliyalashtirish manbasi. *Obrazovaniye nauka i innovatsionnye idei v mire*, 13(7), 3-15.

Тулаев, М. С., Кличев, Б. П. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИИ: ОБЯЗАТЕЛЬСТВО ИЛИ КАПИТАЛ. *Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции*, 146-154.

Tulayev, M. S., & Qlichev, B. P. (2022). Moliyaviy hisob.(Darslik). T.:“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 510.

Tulayev, M. S. (2022). Moliyaviy investitsiyalar hisobi amaliyotini takomillashtirish. *Arxiv nauchnykh issledovaniy*, 2(1).

Napier, C. (2009). Defining Islamic accounting: Current issues, past roots. *Accounting History*, 14(1–2), 121–144.

Mollah, S., & Zaman, M. (2015). Shari'ah supervision, corporate governance and performance: Conventional vs Islamic banks. *Journal of Banking & Finance*, 58, 418–435.

Sarea, A. M., & Hanefah, M. M. (2013). Adoption of AAOIFI accounting standards by Islamic banks. *Asian Social Science*, 9(2), 1–13.

Qlichev Baxtiyor. (2025). Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» *Jurnali*, 3(2), 13–18.

Hassan, M. K., & Aliyu, S. (2018). A contemporary survey of Islamic banking literature. *Journal of Financial Stability*, 34, 12–43.

Klichev B.,(2025). O'zbekistonda ishchilar qo'nimsizligining iqtisodiy muammolari va nazariy yechimlari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(5), 149-161.

Baxtiyor Qlichev, & Sardor Xoldorov. (2024). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning optimal hajmi tahlili. *Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot*, 2(4), 9–15.